

**KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA XORIJIY TILNI  
O'RGAТИSHNING INNAVATSION USULLARI**

**ASAL ISMOILOVA**

*Samarqand davlat chet tillari 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda til o'rghanish talabi nafaqat yuqori sinf o'quvchilariga balki boshlang'ich sinf o'quvchilariga ham qo'yilmoqda. Yosh avlodga xorij tilini o'rnatish pedagoglarning vazifasidir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining til o'rghanishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun xorij tilini samarali, zamonaviy va innovatsion usullari haqida to'xtab o'tilada.

**Kalit so'zlar:** chet tillarini o'rghanishning samarali usullari, zamonaviy metodlar, innovatsion usullar.

**INNOVATIVE METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO YOUNG CHILDREN**

**Abstract:** Nowadays, the demand for language learning is placed not only on high school students, but also on elementary school students. It is the duty of pedagogues to teach a foreign language to the young generation. This article discusses effective, modern and innovative methods of foreign language learning to increase the interest of elementary school students in learning a language.

**Key words:** effective methods of learning foreign languages, modern methods, innovative methods.

Bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarini o'rghanishga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Chet tillarini o'rghanish va o'rnatishning samarali usullarini yaratish bugungi kun talabidir. Psixologlarning fikricha bolalar kattalarga nisbatan tez va oson o'zlashtiradilar hamda til o'rghanish qancha erta boshlansa shuncha til o'rghanish ko'nikmasini egallash osonlashadi. O'quvchilarga til majburiyat sifatida emas aksincha qiziqarli o'yinlar va innovatsion usullardan foydalangan holda ularni

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

kelajakdagi bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi kerak. Shu jumladan zamonaviy pedagogikaning vazifasi bola rivojlanishing barchga sohalariga ta'sir qiladigan murakkab va noyob bo'limgan usullarni izlash va yaratishdan iborat. Shuni ta'kidlash lozimki, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Quyidagi metodlar esa bolalarni zeriktirmay ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda dars o'tishga yordam beradi.

1. Qo'shiq va she'rlar. Qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'limgan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

2. Multfilmlar. Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

3. Topishmoqlar. Bolalar topishmoqlarni yaxshi ko'rishadi. Chunki ular uchun topishmoqlarga javob topish juda qiziq. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytsada, uning javobini ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi.

4. Amaliy mashg'ulotlar. Bu jumlanli bir amaliyotchi psixologning fikrlari bilan izohlash mumkin: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush, organi, muskul sezgisi va hatto iloji bo'lsa hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak". Masalan: o'qituvchi bir o'quvchining olamini tatib ko'rishi paytida uning rangi oq yoki sariq, ta'mi shirin yoki nordon, hidi haqida ma'lumot berishi va boshqa o'quvchilarga ham mevalarni yedirib, u bolalardan o'sha meva haqida inglizcha ma'lumotlar berishini talab qilishi lozim.

5. Mavzuga oid muhit. O'qituvchi mavzuga mos bo'lgan muhitni yaratsagina, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: traveling, sport, cooking va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyuştirishi, sayohatga qanday

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

vositalar orqali ( airplane, train, bicycle, boat, foot ) boorish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish ( Khiva, Samarkhand, Istanbul, Paris ) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu hodisa o'quvchilarning so'z boyligini va til imkoniyatlarini kuchaytirgan holda, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

6. Rol ijro etish. O'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijo ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashi, sherning narasini ko'rsatsa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi kerak.

7. Ko'rgazmali qurollar. Ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish. Masalan: kitob(book), eshik(door), doska(blackboard) va shu kabilarga yozish yoki kichik qog'oz bo'laklariga yozgan yoki rasmlarini yopishtirish mumkin. Bunday narsa-buyumlar doimo ko'zga tushib turishi tufayli so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

8. Juftliklarda ishslash. Bolalarni juftlikda o'qish, yozish, gapirish mashg'ulotlarida birga ishslashga o'rgatish ularga bir-birini qo'llash va bir-biriga o'rgatish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud va xorij tilini o'rgatishdan maqsad o'yin orqali bolalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bolalar juda qiziquvchan, muloqotga tez kirishganligi tufayli ularga o'yin tarzidagi va majburiyatlarsiz darslar o'tilib til o'rgatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular takroriy tinglashlar orqali o'qitilgani natijasida ularning gapirish qobiliyati rivojlanadi. Bunda kichik yoshdagи bolalarning xorij tilini bilish ko'nikmalarini oshirishda innovatsion usul va yondashuvlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.Yo'ldasheva.D. Kichik yoshdagи bolalarga ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullari. 2017-138-p.

2.Romanova.L.A. "Ingliz tilini o'qitish metodikasi" 2022-yil.

3.Jumaniyozova.H "Bolalarga til o'rgatsih metodikasi"

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

4.Sapayeva. O'.B. Maktabdagi ingliz tilini o'qitishda intensive usullar. 2023-564-p.

5.Mamatqulova.G. Kichik yoshdagi bolalar uchun ingliz tilini o'rghanishning innovatsion usullari.